


**XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR
FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

**I BO'LIM. TOSHKENT VILOYATI BO'YICHA
KORXONA VA TASHKILOTLAR SONI**
Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni
(1- iyul holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni
(2023-yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

**Ro'yxatdan o'tgan
korxonalar** **64 154**
110,8 %

**Faoliyat
ko'rsatayotgan
korxonalar** **44 343**
84,0 %

**Yangi tashkil etilgan
korxonalar
(2023-yilda)** **3 781**
98,4 %

Yuridik shaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**


Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
(*tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda*)



*Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar,
ming birlik*



*Xususiy korxonalar,
ming birlik*




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdordorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- iyul holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiyi**

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyatni:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyatni hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyatni ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-iyun oylarida, ming birlikda)




Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiyligi tavsifi

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(ijtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**
(2023- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2023- yilning yanvar-iyun oylarida 3781 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Shundan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 3152 tani, xususiy korxonalar 153 tani, oilaviy korxonalar 372 tani, muassasalar 6 tani va boshqalar 97 tani tashkil etdi.

Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsiyi

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi
(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra)**




**Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)**



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 7123 tani tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 25,0 %ga kamaydi. Ishlab chiqarish sanoati (jami sanoatdagi ulushi 93,1 foiz), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (jami sanoatdagi ulushi 4,6 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (jami sanoatdagi ulushi 1,8 foiz) va elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (jami sanoatdagi ulushi 0,6 foiz) tashkil etdi..

Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona
va tashkilotlar soni**
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:


- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi bo'yicha jamiga nisbati, 51,6 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi bo'yicha jamiga nisbati 12,6 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi bo'yicha jamiga nisbati 35,8 foizni tashkil etdi..

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, savdo sohasidagi , viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 38,1 mingtasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo sohasidagi ulishi 64,7 foizni;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasidagi ulishi 28,1 foizni;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,2 foizni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

- Sog'liqni saqlash sohasi

818



- Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash

26



- Yashah uchun joy bilan ta'minlagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

23



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



307

Yashash bo'yicha xizmatlar



2 709

Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 77,6 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 10,2 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 89,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi


**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)**



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 1,3 foizini tashkil etdi.


Axborot xizmati ko'rsatish hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 17,0 foizini tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 34,8 foizini tashkil etdi.



Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Oilaviy korxonalar soni
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)**



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 5 904 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 612 taga yoki 11,5 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 887 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 923 taga yoki 23,7 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2023- yilning yanvar-iyun oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 372 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100 taga yoki 8,8 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)**

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 43 656 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 332 taga yoki 13,9 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 29 842 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 476 taga yoki 18,3%ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 152 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 171 taga yoki 5,7 %ga ko'payganligini ko'rish mumkin.




**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)**




**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(ijtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)**



**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiyi**


**II BO'LIM. TOSHKENT VILOYATIDAGI
XORIJY KAPITAL ISHTIROKIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR SONI
(2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)**



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 1 881 tani tashkil etib, ulardan 1 423 tasi yoki 75,6 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 337 taga yoki 8,2 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 160 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)**




**Toshkent viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)**

Mamlakalar	Jami	shundan:
		qo'shma korxona xorijiy korxona
1	Rossiya Federatsiyasi	151 44 107
2	Qozog'iston Respublikasi	77 20 57
3	Tojikiston Respublikasi	14 3 11
4	Ukraina Respublikasi	16 7 9
5	Qirg'iz Respublikasi	10 3 7
6	Ozarbayjon Respublikasi	6 2 4
7	Belarus Respublikasi	9 4 5
8	Armaniston Respublikasi	7 1 6
9	Latviya Respublikasi	4 1 3
10	Moldova Respublikasi	5 2 3

**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiyi**

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	987	1 248	1 391	1 544	1 423
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	89	117	133	132	98
sanoat	576	684	713	756	635
qurilish	34	57	72	85	62
savdo	151	221	267	318	403
tashish va saqlash	18	22	26	33	28
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15	26	30	33	30
axborot va aloqa	3	3	6	12	15
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	10	12	17	15	10
boshqa turlar	91	106	127	160	142

**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiyl tavsifi**

III BO'LIM. HUDUDLAR BO'YICHA KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiyi**

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)**


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Toshkent viloyati	1423	555	868
Oqqo'rg'on tumani	16	4	12
Ohangaron tumani	69	22	47
Bekobod tumani	3	2	1
Bo'stonliq tumani	52	28	24
Bo'ka tumani	12	5	7
Quyi Chirchiq tumani	47	20	27
Zangiota tumani	243	60	183
Yuqori Chirchiq tumani	106	46	60
Qibray tumani	129	55	74
Parkent tumani	29	13	16
Piskent tumani	25	10	15
O'rta Chirchiq tumani	88	25	63
Chinoz tumani	26	14	12
Yangiyo'l tumani	81	27	54
Toshkent tumani	70	32	38
Nurafshon shahri	57	16	41
Olmaliq shahri	53	19	34
Angren shahri	85	49	36
Bekobod shahri	22	14	8
Ohangaron shahri	54	26	28
Chirchiq shahri	105	53	52
Yangiyo'l shahri	51	15	36

**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)**




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning
hududlar kesimida soni
(2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)**



2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Zangiota tumanida 12,1 %, Qibray tumanida 9,3 %, Toshkent tumanida 6,8 %, Angren shahrida 5,7 %, Yangiyo'l tumanida 5,0 %, Chirchiq shahrida 6,8 %, Yuqori Chirchiq tumanida 5,0 %, O'rta Chirchiq tumanida 4,1 %, Olmaliq shahrida 4,3 %, Parkent tumanida 2,5 %, Bo'stonliq tumanida 4,2 %, Yangiyo'l shahrida 3,5 %, Quyi Chirchiq tumanida 2,8 %, Bo'ka tumanida 3,2 %, Bekobod shahrida 3,2 %, Ohangaron tumanida 3,0 %, Piskent tumanida 2,6 %, Nurafshon shahrida 2,4 %, Ohangaron shahrida 2,8 %, Chinoz tumanida 2,7 %, Bekobod tumanida 3,0% va Oqqo'rg'on tumanida 2,3 %ni tashkil etadi.

**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**


**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi
(2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi %da)**



2022-2026 yillarda rivojlanishning yo'nalishi bo'yicha "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish. sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish muhim hisoblanadi.


**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni
(2023-yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)**



2023-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida ko'rildigani bo'lsa, asosan O'rta Chirchiq (10,2 %), Oqqo'rg'on (4,5 %), Bo'stonliq (6,4 %), Yuqori Chirchiq (7,7 %), Zangiota (6,4 %), Yangiyo'l (4,8%), Parkent (11,2), Qibray (4,5 %), Toshkent (9,1 %), Chinoz (2,4 %) tumanlari va Nurafshon (4,3 %) shahri yuqori ulushga ega.

**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalar soni
(2023-yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)**



**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnomasini, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faoliyik darajasi - ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmasan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2023-yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiylaysi tavsifi**